

NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA SOHAVIY MATNLARNI TANLASHGA QO'YILADIGAN TALABLARGA DOIR

U. Soliyev¹

Annotatsiya:

Ushbu maqola nofilologik yo'nalishlarda sohaviy matnlarni tanlashga qo'yiladigan talablarga bag'ishlangan bo'lib, unda oliv ta'lim muassasalarining nofilologik yo'nalishlarida Ingliz tili darslarida sohaga oid matnlar va ularga qo'yiladigan talablar keng yoritilgan. Ingliz tili darslarida inglizcha matnlar asosida tilni o'rgatish ancha samarali usul ekanligi, ammo kasbga yo'naltirilgan holda ingliz tilini o'qitishda o'qish kompetensiyasini rivojlantirish chuqur o'rganilmagan ekanligi haqida fikr yuritilgan. Maqolada ingliz tilini kasbga yo'naltirilgan holda o'rgatishda inglizcha matnlardan foydalanish bo'yicha olib borayotgan ilmiy izlanishlar va qo'lga kiritilgan natijalar berilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, sohaga oid matnlar, o'qish kompetensiyasi, o'qish turlari, sohaviy matnlarni tanlash

doi: <https://doi.org/10.2024/vemgqb38>

Kirish

Hozirgi globalashuv davrda o'qishning hayotimizdag'i o'rni muhimligiga ortiqcha izoh shart emas. Bugungi raqamli texnologiyalar davrida, inson o'qish orqali juda katta ma'lumot oladi, bundan tashqari, nutq faoliyatining ushbu turi madaniyatlararo muloqot va umuman zamонавиy muloqotning asosini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, chet tilini o'rganishda o'qish nafaqat maqsad, balki o'rganish vositasi sifatida ham ishlaydi. Umuman olganda, chet tilini o'rganishning muvaffaqiyati bevosita talabaning o'qishning boshida o'qish texnikasini qanchalik yaxshi o'zlashtirganiga bog'liq. Bu, birinchidan, nutq faoliyatining barcha turlari o'zaro bog'liqligi, ikkinchidan, nutq faoliyatining bir turi sifatida o'qishning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida oliv ta'lim muassasalarini talabalarining xorijiy tilda nutq ko'nikmalarini (o'qish, yozish, gapirish, tinglab tushunish) rivojlantirish, ularda ushbu tilda o'z ta'lim yo'nalishlari doirasida erkin muloqot qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks ta'lim tizimi yaratilmoqda. "Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamонавиy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish lozimligi" kabi vazifalar belgilangan.

Asosiy qism

Bozor iqtisodiyotida poliglot kadrlarga bo'lgan talab ortib borayotganligidan kelib chiqqan holda, metodik ishlarni tashkil etish, xorijiy tajribalarni o'rganish, oliv ta'lim muassasalarining iqtisodiyot yo'nalishlarida kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish, shu jumladan, talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qishning shaxs tarbiyasidagi o'rni beqiyos bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy ozuqa olish yo'lidagi

¹ Soliyev Umidjon Yulchivoyevich, Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi

nutqiy faoliyat, harakat turidir. Reseptiv nutq faoliyati turi hisoblangan o'qishni o'rgatishdan ingliz tilida ta'limiya maqsad ko'zda tutiladi. O'qish grafik koddagi axborotni undan butunlay farq qiladigan tovush kodiga o'tkazish jarayoni, harfiy belgilarda ifodalangan yozma nutqiy axborotni idrok etish, uning mazmunini tushunish, o'zlashtirishga qaratilgan nutqiy faoliyat turidir. O'qish motivi muloqot qilish, maqsad esa axborot/ma'lumot olishdir. O'qishning ingliz tilidagi bunday maqomi talabalarni unga nutq faoliyatining mustaqil turi sifatida yondashishga undaydi, uning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi. O'qishga nutq faoliyatining mustaqil turi sifatida to'g'ri yondashuv uning kommunikativ vazifasini aniqlashga ham yordam beradi. Lekin haligacha ingliz tili o'qituvchilar orasida tilni amaliy egallash tushunchasini og'zaki nutqni o'rganish deb qabul qilish odatlari mavjuddir, ya'ni og'zaki nutqqa oid kompetensiyani rivojlantirishni – tilni amaliy maqsadda egallash deb tushuniladi. Bunday noto'g'ri metodik yondashuv ingliz tilida o'qishni amaliyotdagi rolining pasayishiga og'zaki nutqni shakllantirishda vosita sifatida qaralishiga olib kelmoqda.

Tadqiqotchilardan M.Uest, I.M.Berman, V.A.Buxbinder, Z.I.Klichnikova, S.K.Folomkina, J.J.Jalolov, N.V.Barishnikova va M.L.Vaysburdlar o'qishni o'rgatish bo'yicha til ta'limshunosligida fundamental ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan. Mazkur tadqiqotlarda ingliz tilida o'qish nutq faoliyati turini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari, ingliz tilida o'qishni o'rgatishni axborotni o'zlashtirishdagi o'rni va ahamiyati kabi metodik masalalar atroficha o'rganilgan, ularga doir qimmatli fikrlar bayon etilgan. Ingliz tili o'qitish metodikasida o'qish maqsad va vosita maqomlarida o'rgatilishi joriy dasturlarda ko'rsatib o'tilgan. O'qishni maqsad va vosita maqomlarida o'rgatishni to'g'ri talqin etish uchun uning ta'limning ayrim bosqich hamda tashkiliy qismlarda tutgan o'rniga to'xtalish joizdir.

Nofilologik yo'naliш talabalariga o'qishni o'rgatish tilni bilish/o'rganish jarayoni sifatida tashkil etiladi, matn orqali talaba bilishga, undan o'zi uchun yangi va foydali ma'lumotlar olish uchun harakat qiladi. Axborot olish bilish faoliyatini harakatlantiruvchi vosita ekanligi hammamizga ma'lumdir. O'qish faoliyatining natijasi esa bilishga olib keluvchi vosita hisoblanadi. Albatta, o'qilgan matn axborotini o'zlashtirib olish uchun talaba ingliz tilida o'qish malakasini egallagan bo'lishi talab etiladi. O'qish malakasi uch bosqichli faoliyat bo'lib, nutq birligining ko'rish, uni o'qish va ma'nosini tushunish bosqichlaridan tashkil topadi. Uchala bosqichni egallash o'qish kompetensiyasini hosil qilinganligidan dalolat beradi. O'qishga nutq faoliyatining mustaqil turi sifatida yondashuv uning amaliy-kommunikativ vazifasini aniqlashga yordam beradi. Oliy o'quv yurtlariningnofilologik ta'lim yo'naliшlarida Xorijiy til fani bo'yicha o'quv soatlarining chegaralanganligi, o'quv rejasingin o'ziga xosligi, til tabiiy muhitining mavjud emasligi, talabalarining yosh xususiyatlari har qanday ingliz tilidagi matnni o'qishga imkon bermaydi. Shuning uchun amaliyotda mazkur sohada lozim bo'lgan maqsad va vazifalarni to'g'ri aniqlab olish zarurdir. Bu esa ingliz tilida o'qish faoliyatining amaliy jihatdan ahamiyatini kuchaytiradi. Tilni amaliy maqsadda egallash ingliz tili o'rganuvchining kelajakdag'i maqsadi, o'quv yurtining yo'naliшi va uning amaliy faoliyatda axborot olish qobiliyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Axborot olish maqsadida o'qish, avvalo, amaliy maqsad, ikkinchidan, ta'limiya vosita ekanligi nazariya va amaliyotda isbotlangan. Nofilologik yo'naliшlarda o'qishdan axborot olish maqsadida uning tanishuv, o'rganuv, kuzatuv turlari o'rgatiladi.

Tanishuv o'qish (fluently reading) inglizcha matndan o'zi uchun foydali va qiziqarli ma'lumotlarni olish hamda umumiylarini tushunishni nazarda tutadi. Tanishuv o'qishda inglizcha matn mazmunini yuzaki tushunib o'qish uchun, umumiylarini o'qish uchun amalga oshiriladi. Mazkur o'qishda matn ravon, jadal va yuzaki o'qiladi. O'qishning mazkur turida axborotning 75 foizingacha tushunarli bo'lishi lozim. Bunday matnlarning hajmi katta, tili ravon bo'lishi tavsiya etiladi.

Tanishuv o'qishni nazorat qilishga qo'yiladigan topshiriqlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: (1) matnning asosiy mazmunini bayon eting (Retell the main content of the text); (2) matnning tayanch so'zlarini toping (Find the key word and expressions of the text); (3) muallif xulosalari uchun asos bo'lib xizmat qiladigan faktlarni sanab o'ting (Say the main facts); (4) matnda aks ettirilgan hodisalarining qaysilari asosiy, qaysilari ikkinchi darajali ekanligini aniqlang (Find the main facts of the text) va h.k.

O'rganuv o'qish (close reading) – matnni, jumladan, tilning ifodaviy vositalarini o'rganish, tahlil qilishni nazarda tutadi. O'rganuv o'qish matn mazmunini mutolaa qilish, matn mazmunidagi barcha tavslotlarni o'rganib olish, axborot/ma'lumotlarni sinchiklab o'rganishni ko'zda tutadigan o'qish turi hisoblanadi. O'qishning ushbu turi o'zlashtirilgan axborotni to'liq tushunish va keyinchilik uni qaytadan tiklashni taqozo etadi. Tushunish yuqori darajaga yetkaziladi. Matnning qiyinchilik tug'dirgan, o'quvchi tushunmagan qismlarini takror o'qish mumkin. O'rganuv o'qish avval auditoriyada, so'ngra uyda bajariladi. Tushunganlikni tekshirish usullaridan biri sifatida tarjimadan foydalaniladi. Odadta, matnning qiyinchilik tug'diradigan qismlarini tarjima qilinadi. Mazkur o'qishda matnning xajmi unchalik katta bo'lmashigi tavsiya etiladi. Matn qamrovidagi axborot sinchiklab o'rganiladi. O'rganuv o'qishda o'quvchi matn mazmuni bo'yicha o'z munosabatini bildirishi, tanqidiy fikrlashi, izohlay olishi, axborotlarni qiyosiy tahlil qila olishi lozim.

Kuzatuv o'qish (Skimming reading) – matn mazmuni haqida umumiylarini tasavvur hosil qilishga qaratilgan o'qish turidir. Mazkur o'qish turiga taniqli metodist M.Uest "matn mazmunining qaymog'ini olish", "mushohadali, muayyan mavzuni qidirib o'qish" deb ta'rif bergan. Mazkur o'qishda o'quvchi ko'proq sarlavha, kichik sarlavhachalardan boshlab, matnni to'liq va tez o'qib chiqishi talab etiladi. Kuzatuv o'qishda til materialini tanish bo'lishi, o'quvchi matndan muayyan raqam, iqtibos kabi axborotlarni qidirishi talab etiladi. Kuzatuv o'qish matndan qo'yilgan savolga javob topish, o'qish jarayonida o'zlashtirilgan axborotni keyinchalik, albatta, ishlatalishi lozim ekanligini tushunishga asoslangan o'qish turidir [4]. Yuqoridagi tanishuv, o'rganuv va tanishuv o'qish turlaridan yuqori sinf ingliz tili ta'limida mamlakatshunoslikka oid foydali axborotlar olishda keng foydalaniladi.

Ingliz tilini amaliy maqsadda egallash nafaqat undan kelgusida kasbiy faoliyatda foydalanish, balki talabaning umumiylarini madaniyati, tafakkurini rivojlanib borishiga imkon yaratadi. Buning uchun ingliz tili darslarini samaradorligini yanada oshirish, o'quvchilarni tili o'rganilayotgan mamlakatlar geografiyasi, tarixi, iqtisodi va siyosiy tuzumi, adabiyotiga oid manbalardan muntazam boxabar etib borishni taqozo etadi. Yuqoridagi vazifalar ham ingliz tilida o'qishga axborot olishda asosiy vosita sifatida qarashga undaydi.

Odatda oliy o'quv yurtlarining nofilologik ta'llim yo'naliishlari talabalari ko'proq kasbga va sohaga oid axborotga boy va qiziqarli matnlarni o'qishga ehtiyoj sezadilar. Biroq, bunday matnlarni o'qish oddiy so'zlashuv yoki badiiy uslubdagi matnlarni o'qishga qaraganda ancha murakkabroq kechadi. Buning

sababi kasbga oid matnlarda rasmiy belgilar, sohaga oid atamalarning ko‘proq uchrashidir. Talaba bunday matnlarni o‘qiganda noma’lum so‘z ma’nosи kontekstga tayangan holda aniqlay olsa, tayanch so‘zlarga suyangan holda matn asosida berilgan topshiriqlarga javob qaytara oladi.

Ingliz tili o‘qitish metodikasida o‘qishga mo‘ljallangan matn mazmuniga quyidagi talablar qo‘yiladi: (1) Matnning tarbiyaviy ahamiyatiga e’tibor beriladi. Ingliz tili o‘rgatish maqsadlaridan biri tarbiyalashdir, jamiyat ahloq qoidalarini singdirish, ya’ni ma’naviy tarbiya berishga qaratilgan matnlar tanlanadi; (2) Talabalarning hayotiy bilimlarini oshirish, ya’ni dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladigan matnlar saralanadi. Bu talabani bilish faoliyatini o‘stirishda muhim shartlardandir. Axborotga boy matnni o‘qish o‘quvchida joziba uyg‘otadi. Chunki talaba bilishga oshiqadi, bilishga moyilligi rag‘batlantirilsa, ushbu fanga uning qiziqishi oshadi; (3) O‘qishga tavsiya etilgan matn ilmiy voqealikni ob‘yektiv aks ettiradigan bo‘lishi talab etiladi; (4) Tanlanayotgan matn talabanining sohasiga oid bo‘lishi lozim. Talaba ehtiyojini qondirish ingliz tilida nutqiy faoliyatga undashning muhim chorasıdir. Xullas, matn mazmuni talabanining ma’naviy saviyasiga muvofiq bo‘lishi, bilish va hissiy talablariga javob berishi kerak.

Xulosa

Xullosa qilib aytganda, o‘qish amaliy maqsaddan tashqari, kasbiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ro‘yobga chiqishida ham katta rol o‘ynaydi. Bunda talabalarning kuzatuvchanligi oshadi, ularning til materiali va matn mazmunini analiz/sintez qilish qobilyatlari takomillashadi. Ovoz chiqarib o‘qish tallaffuzni o‘rgatishda, tinglab tushunishda muhim bosqich sanaladi. Bundan tashqari, o‘qish gapirish malakalarini shakllantirishda ham vosita sanaladi. O‘qilgan matnlar mazmuni bo‘yicha savol-javob mashqlarini bajarish, hikoya qilib berish, suhbat kabilardan keng ko‘lamda foydalaniladi.

Oliy o‘quv yurtlarining nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tilidan o‘qish malakalarini egallah, birinchidan, talabalarni shu tilda nutqiy muloqot qilishga tayyorlashni, ikkinchidan, ularning tilga oid kompetensiyasini mukammal egallahni, umumiyy saviyasining o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Oliy o‘quv yurtlarining nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida o‘qishni o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudki, tadqiqotimizda ularni alohida ta’kidlab o‘tish joizdir:

1. Oliy o‘quv yurtlarining nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida o‘qish materiali sifatida ijtimoiy-maishiy, badiiy, siyosiy, madaniy, o‘quv-ta’limiy, kasbiy sohalarga oid matnlar tanlanadi.

2. Oliy o‘quv yurtlarining nofilologik ta’lim yo‘nalishlari Xorijiy til fanida o‘qishning o‘rni va roli, unga qo‘yiladigan dasturiy talablar o‘rtta mакtabning chet tili darsliklarida berilgandan yuqoriq - qiyinroq darajada bo‘ladi. Oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilida o‘qiladigan matnlarning murakkablik darajasi ortib boradi.

3. Ingliz tilida o‘qish talabalarni shu tilda nutqiy muloqot qilish, muayyan sohalarda axborotlar olishni ta’minlaydi, ularning umumiyy saviyasini oshiradi.

4. Talabalar ingliz tilida o‘zlari o‘rganayotgan soha va kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasbiga oid axborotlardan muntazam boxabar bo‘lib boradilar.

5. O‘qish bo‘yicha mavzular tanlash talabalarning umumiyy saviyasi va o‘qitish bosqichlariga bog‘liq bo‘ladi, ingliz tilida o‘qishni o‘rgatish amaliy maqsad va ta’limiy vosita sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar:

- [1]. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to'ldirilgan 2 -nashri. - Toshkent: O'quvchi, 2012. -432 b.
- [2]. Saydaliyev S. S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. - Namangan: NamDU, 2000. -210 b.
- [3]. Берман И.М. Методика обучения английскому языку в неязыковых вузах. - М.: Высш. школа., 1970. - 230 с.
- [4]. Фоломкина, С.К. Некоторые вопросы обучения чтению на иностранном языке в языковом вузе // Общая методика обучения иностранным языкам: Хрестоматия. - М.: Рус.яз., 1991.